
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga hududiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari yuzasidan Farg'ona tumani hokimi Xamidullo Tadjiyevichning tuman xalqiga MUROJAATI

Assalomu alaykum hurmatli Farg'ona tumani aholisi!

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga hudud sanoati va infratuzilmasining rivojlanishi, mahallalarda olib borilayotgan yirik bunyodkorlik ishlari bilan tanishish, yangi yirik loyihalarga start berish yuzasidan tashrifi davomida bizga yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Muhtaram Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan faollar yig'ilishida Farg'ona tumanini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, qator mas'uliyatli topshiriq va vazifalari berildi.

Farg'ona tumani aholisi **222,5 mingga** yaqinlashganini inobatga olib, tumanda salohiyatli tadbirkorlar ko'pligi, imkoniyat ham, sharoit ham keragidan ortiq, agar to'g'ri yondashuv va tizimli ishlar tashkil etilsa, investitsiya, ishlab chiqarish, ish o'rini va eksportni karrasiga oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqdim.

Tumanni iqtisodiy rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz belgilab bergan yangicha tizim asosida ish olib borib, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning muammolarini hal etish, qo'shimcha imkoniyatlarini ishga solish orqali joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini **1 trln. 429 mlrd.** so'mga yetkazib, **1,3 barobarga** oshiraman.

Davlatimiz rahbari dunyodagi hozirgi o'ta murakkab sharoitda jahon bozorlariga yangi yo'l ochish, investitsiya olib kelish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berdilar.

Aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni qisqartirish maqsadida yil yakuniga qadar tumanda **5 650 nafar** aholi bandligi ta'minlanadi, jumladan:

investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo'nalishida – **260 ta**;

moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish – **1 035 ta**;

Farg'ona tumanida joriy yil yakuniga qadar Davlat investitsiya dasturlari hamda qo'shimcha amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga **93,3 mln. dollar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish belgilab olingan bo'lib, yanvar-iyul oylarida jami **46,6 mln. dollar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirildi. Bu ko'rsatkich rejaga nisbatan **102,8 foizni** tashkil qildi (*o'tgan yili shu davrga mos nisbatan 13,3 mln. dollar o'sish – 349,5 foiz*). Joriy yil yakuniga qadar **46,7 mln. dollar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar o'zlashtirilishini ta'minlash maqsad qilib olingan (*o'sish – 182,2 foiz, shundan, III chorakda 22,4 mln. dollar, IV chorakda 24,3 mln. dollar*).

Shuningdek, yil oxirigacha sohalar rivoji uchun FRRUdan berilgan arzon resurs va banklarda xorijdan olib kelingan mablag'lar bo'yicha jami **27 ta** loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, umumiy **22,1 mln. dollar** o'zlashtirish rejalashtirilgan.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha yil boshidan **2 ta** korxonalar ishga tushirilgan bo'lib, yil yakuniga qadar sanoat zonalariga tadbirkorlarni jalb qilish hisobidan yangi **4 ta** loyiha amalga oshirilishi belgilab olingan.

Eksport salohiyatini oshirish masalasi doirasida tumanda **25 ta** (*shundan sanoat korxonalari 13 ta, qishloq xo'jalik korxonalari 11 ta*) eksportkor korxonalar mavjud bo'lib, yanvar-iyun oylarida amalda **7,3 mln. dollarlik** eksport (*shundan sanoat mahsulotlari 5,2 mln dollar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari 2,1 mln dollarga*) amalga oshirildi. Belgilangan eksport prognozi rejasi (*7,1 mln.dollar*) **103 foizga** bajarildi. Shuningdek, mazkur davrda **4 ta** yangi korxonalar eksportga jalb etildi va **3 turdagi** yangi mahsulotlar eksportga chiqarildi. **4 ta** eksport bozorlari o'zlashtirilib, ularning umumiy soni **18 taga**

yetkazildi.

Ikkinchi yarim yillikda belgilangan hududiy eksport prognozi bajarilishida "Eksportchibay" ishlash tizimi bo'yicha korxonalarda yuzaga keladigan muammoli masalalar tezkor hal etish choralari ko'rib, ularning eksport faoliyati qo'llab-quvvatlanishi yanada kuchaytiriladi.

3 ta (yil boshidan jami 7 ta) korxonalar eksport faoliyatiga qo'shimcha jalb etilib, **4 ta** yangi mahsulotlar eksportga chiqariladi.

Shuningdek, tumanda yiliga **103 ming** tonnadan ortiq mevalar yetishtiriladi. Ushbu mevalarni jahon bozoriga eksport qilish maqsadida "Ferghana France" MCHJ qo'shma korxonasi tomonidan umumiy qiymati **11 mln.** dollarlik "Mevani qayta ishlash va quyiltirilgan tabiiy sharbat ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirish belgilangan. Loyiha amalga oshirilishi natijasida **6,5 ming** tonna meva qayta ishlanib, eksportga amalga oshiriladi.

Qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish orqali - **3 935 ta**;

qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko'rsatkichlari - **420 ta** aholi bandligi ta'minlanadi.

Aholini kambag'allikdan chiqarish va daromadini oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiraman, jumladan:

mahallalarda qiymati **48,0 mlrd** so'm bo'lgan **1 460 ta** kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mikroloyihalarini ishga tushirish hisobiga ikkinchi yarim yillikda **2 083 nafar** aholi band qilinadi.

Shuningdek, **7 366 ta** o'zini-o'zi band qilish, **308 ta** yakka tartibdagi tadbirkorlik, **236 ta** yangi korxonalar va **5 371 ta** dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi;

"Oilaviy tadbirkorlik" dasturi, "Biznesni rivojlantirish banki" hamda "Biznesga birinchi qadam" loyihalari doirasida) yil yakuniga qadar **2,8 ming** nafar aholi bandligi ta'minlanadi, ushbu maqsadlarga jami **14,0 mlrd so'm** imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltiriladi;

bank mijozlari bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni muammolarini hal qilish orqali **2,3 ming** ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Bugungi kunda migratsiyada yurgan, hatlov natijasi kam daromad olayotganligi aniqlangan **4 851 nafar** fuqarolarni qaytarib va ularni doimiy daromadga ega, kafolatlangan ish o'rin bilan ta'minlayman.

Bunda ularni bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqib ishlab chiqarish korxonalariga joylashtiriladi. Shuningdek, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilib, subsidiya hamda imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan tadbirkorlikka yo'naltiriladi.

Aholini tamorqadan foydalanishi madaniyatini yanada oshirib, mazkur yo'nalishda "Sayxunobod", "Uychi tajribalari"ni keng qo'llayman.

Davlatimiz rahbarining bergan vazifa va topshiriqlaridan tegishli hulosaga chiqargan holda Men o'z komandam va albatta Sizlar bilan birgalikda mazkur vazifalarni to'laqonli bajarishda bor kuch-g'ayratim va shijoatimni sarflayman.

Bunda Allohni o'zi madadkor bo'lsin.

Farg'ona tumani hokimi Inomov Hamidullo Tadjievich

2024-07-25 19:13:46